



ISSN: 3060-4613



13.00.00
13.00.01
13.00.02
13.00.03
13.00.04
13.00.05

13.00.06
13.00.07
13.00.08
13.00.09
07.00.00
19.00.00

01.00.00
02.00.00
03.00.00
09.00.00
10.00.00
11.00.00

№6/2025

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 160 sahifa,
5-iyun, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjijev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o’tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Iqim o'zgarishi muammolari va "yashil ko'nikmalar"ning rivojlanishi.....	14
<i>Abdurashit Karimovich Avliyaqulov</i>	
TTJlardagi qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish.....	18
<i>Xasanboy U. Abdusamatov</i>	
Integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili	26
<i>Jalilov Nodirjon Azamatovich</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi.....	30
<i>G'ayibova Nargiza Anorbayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari	33
<i>Hakimova Gulmira To'xtatosheva</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini	37
<i>Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi</i>	
Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining ta'siri	41
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodova</i>	
Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников	44
<i>Умрихина Виктория Игоревна</i>	
Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода	52
<i>Ахунова Умида Ойбековна</i>	
Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: o'qitish va boshqaruvdagi o'rni	55
<i>Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi</i>	
Buxorodagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi.....	60
<i>Axrorov Ixtiyor Doniyorovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va maktabning roli	63
<i>Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li</i>	
Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход	67
<i>Сайфутдинова Насиба Нурматовна</i>	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.....	75
<i>Otasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari	78
<i>Xodjimatoeva Nazira Toshmatovna, Mallayeva Gulshoda Maxmudjonovna</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'limning o'rni	81
<i>B. Xusniddinova</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish	85
<i>Zulaykho Samatovna Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi	89
<i>Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi</i>	
Sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	92
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna</i>	
Methodology of Teaching English to Preschool Children	96
<i>Khurshida Tojimurodova</i>	
Malaka oshirish jarayonida yo'riqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati..	100
<i>Ch. B. Nalibayeva</i>	
O'qituvchilarning o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlari	103
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning o'rni.....	106
<i>Boymirzayeva Xurshida Sobirovna</i>	



Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari	110
Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li	
An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development..	113
Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna	
O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	118
Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi	
Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari	123
Jo'rayev Ilhom Isxoqovich	
Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish	126
Muxlisa Satriddinova Muhitdinova	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi	132
Nuriddinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	136
Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi	
Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlarini	139
Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi	
Nutqiy kamchiliklarni kamaytirishda o'yinlarning o'rni	143
Jabborova Oltinoy	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	146
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Ta'lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruvining qiyosiy tahlillari	150
Uzaqov Nomozali Hamdamovich	
Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari	153
Z. M. Zarifova	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ KO'NIKMALARINI DARS JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI



Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti Ta'lim va ta'biya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va o'quv savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi ko'rib chiqiladi. Maqolada nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlar, shuningdek, ularga mos texnologiyalarni qo'llash usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, aniq misollar orqali nutqiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishning afzalliklari ko'rsatib berilgan. Interfaol metodlar, vizual materiallar va amaliy topshiriqlar qo'llanilishi orqali o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'quv savodxonligi, og'zaki nutq, yozma nutq, boshlang'ich sinf, pedagogik yondashuv, metodlar, texnologiyalar.

Abstract: This article considers the technology of developing oral and written speech skills of primary school students in native language and academic literacy classes. The article analyzes modern pedagogical approaches and methods in the development of speech skills, as well as the methods of using appropriate technologies. The advantages of gradually developing speech competencies are shown through specific examples. The use of interactive methods, visual materials, and practical tasks to increase students' speech activity is described. An analytical approach is presented based on foreign and domestic scientific perspectives.

Key words: academic literacy, oral speech, written speech, primary school, pedagogical approach, methods, technologies.

Аннотация: В статье рассматривается технология развития навыков устной и письменной речи учащихся начальных классов на уроках родного языка и академической грамотности. В статье анализируются современные педагогические подходы и методы развития речевых навыков, а также методики использования соответствующих технологий. На конкретных примерах показаны преимущества поэтапного развития речевых компетенций. Описаны способы повышения речевой активности учащихся через применение интерактивных методов, наглядных материалов и практических заданий. Дан аналитический подход, основанный на зарубежных и отечественных научных взглядах.

Ключевые слова: академическая грамотность, устная речь, письменная речь, начальная школа, педагогический подход, методы, технологии.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'limda kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bola shaxsining shakllanishi va uning ijtimoiy hayotga kirib borishida asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarning to'g'ri va ravon nutq so'zlashi, fikrini aniq bayon etishi, yozma ifoda ko'nikmalarini egallashi zarur.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – dars jarayonida og'zaki va yozma nutqni shakllantirishga xizmat qiladigan samarali metodlar va yondashuvlarni tahlil qilish, ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatishdir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq inson tafakkuri va ongining ifodasi bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy-madaniy omillar, biologik rivojlanish darajasi hamda pedagogik ta'sir vositalari bilan chambarchas bog'liqdir. Til orqali inson o'z fikrini ifodalaydi, muloqotga kirishadi, axborot oladi va uzatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nutq ko'nikmalarining rivojlanishi bilim olish va ijtimoiylashuvning asosiy vositasi hisoblanadi. Lev Vygotsky til va tafakkur o'rtasidagi aloqani chuqur o'rgangan. Unga ko'ra, nutq inson tafakkurining vositasi bo'lib, o'quvchilar muloqot orqali atrof-muhitni idrok etadi. Vygotsky, shuningdek, "yaqin rivojlanish zonasi" (YRZ) tushunchasini kiritgan bo'lib, unga ko'ra bola o'qituvchi yoki katta yoshdagilar yordamida bajargan vazifani mustaqil bajarishga qodir bo'ladi. Bu jarayonda til – o'zlashtirish vositasi sifatida ishlaydi ^[1].

Shuningdek, J. Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari haqidagi nazariyasiga ko'ra, 6-10 yoshdagi bolalar aniq fikrlash bosqichida bo'lib, ular real holatlar asosida fikr yuritadilar. Bu esa dars jarayonida konkret misollar, hayotiy voqealar va vizual materiallardan keng foydalanishni talab qiladi. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda bu nazariya muhim metodik mezon bo'lib xizmat qiladi ^[2]. Til o'rganishning kommunikativ yondashuvini M. Halliday ^[3] va Dell Hymes ^[4] o'quvchilarning til orqali muloqot qilish ehtiyojini qondirishga qaratgan. Bu yondashuvda til o'rganish – bu nutqiy faoliyat, muloqotda qatnashish, fikr almashish jarayoni sifatida qaraladi. Shu boisdan boshlang'ich ta'limda muloqotga asoslangan topishmoqlar, rolli o'yinlar, savol-javob mashqlari keng qo'llaniladi. Ushbu tadqiqotda pedagogik kuzatuv, eksperiment, o'quvchilarning yozma ishlari tahlili, savolnomalar va suhbatlar metodlaridan foydalanish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlarida og'zaki va yozma ko'nikmalarning quyidagi bosqichlarda shakllanishi aniqlangan: tayyorlov bosqichida so'zlar ustida ishlash, talaffuz mashqlari, rasm asosida gap tuzish, savol-javob orqali so'z boyligini oshirish mashqlari amalga oshiriladi. Boshlang'ich bosqichda oddiy gaplardan iborat matnlar tuzish, kundalik hayotga oid voqealarni og'zaki bayon qilish, fikrni soddalashtirib yozma tarzda ifodalash ko'nikmalari shakllanadi. Mustahkamlash bosqichida hikoyalarni qayta yozish, matnga sarlavha qo'yish, mazmunini aytish hamda og'zaki hikoyani yozma shaklga keltirish ishlari bajariladi. Ijodiy qo'llash bosqichida mustaqil matn tuzish (fantastik hikoya, taassurotlar), insho yozish (oilam, maktabim, tabiat haqida), dialog va monolog shakllarini tuzish mashqlari amalga oshiriladi ^[5,37].

Ushbu bosqichlarning samaradorligi darsni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish va ularning faol ishtirokini ta'minlash orqali erishiladi. Har bir bosqichda o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari hamda nutq rivojlanish darajasi inobatga olinishi lozim. Shuningdek, oilaviy muhit va atrofdagi ijtimoiy sharoit ham bu jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tajriba darslari davomida aniqlanishicha, og'zaki nutqni rivojlantirish uchun quyidagi mashqlar o'z samarasini berdi: rasmga qarab hikoya tuzish; tez aytish, topishmoqlar va maqollar orqali so'zlashuv; guruhlarda ishlash orqali fikr bildirish. Yozma nutqni rivojlantirishda esa quyidagilar foydali bo'ldi: matn bo'yicha savol-javoblar tuzish; reja asosida yozma bayon qilish; matnni tahrirlash va qayta yozish usullari.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nutq ko'nikmalari – bu shaxsning o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda ifoda etish malakalaridir. Og'zaki nutq (tinglash va so'zlash) va yozma nutq (o'qish va yozish) o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni uyg'un holda rivojlantirish dars jarayonining samaradorligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu ko'nikmalarni tabiatdan emas, balki maxsus o'rganish natijasida egallaydi.

O'quvchilarda nutq quyidagi bosqichlarda shakllanadi:



Bu bosqichlar bir-biri bilan bog'liq holda o'zlashtiriladi. Har bir bosqichda tegishli ko'nikma va malakalar shakllanadi.



Dars jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirish usullari. Og'zaki nutqni rivojlantirishda o'quvchilarning faol ishtiroki, erkin fikr bildirishlari va muloqotga kirisha olishlari muhimdir. Bu quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- Savol-javoblar orqali o'quvchini fikrlashga undash;
- Rolli o'yinlar yordamida nutqiy vaziyatlar yaratish;
- Rasmlar asosida hikoya tuzdirish orqali og'zaki fikrlashni faollashtirish;
- Suhbatlar orqali o'z fikrini ravon bayon qilishga o'rgatish.

Yozma nutqni rivojlantirish metodlari. Yozma nutqni shakllantirishda izchillik, grammatik to'g'rilik, bog'liqlik va mantiqiylik asosiy mezon hisoblanadi. Buni quyidagi topshiriqlar orqali rivojlantirish mumkin: diktantlar, nusxalar va yozma mashqlar; gaplarni to'ldirish, matnni davom ettirish yoki qayta yozish; erkin yozuvlar, masalan: "Mening yozgi ta'tilim", "Do'stim haqida" kabi mavzularda [6].

Shuningdek, yozma nutq og'zaki nutq asosida shakllanishini inobatga olib, avval og'zaki fikrlash, keyin esa uni yozma shaklga keltirish tavsiya etiladi.

Amaliy misol: 1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida "Vatan oiladan boshlanadi" mavzusidagi mashg'ulotda o'quvchilarga oila aks etgan rasm namoyish etiladi. Dastlab o'quvchilar rasm asosida og'zaki ravishda hikoya tuzadilar, so'ng uni yozma shaklga keltiradilar. Bu mashg'ulot orqali ularning lug'at boyligi, grammatik to'g'riligi va ijodiy fikrlashi rivojlanadi [7; 16].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dars jarayonida og'zaki va yozma nutqni uyg'un rivojlantirish orqali o'quvchilarda mustahkam til ko'nikmalari shakllanadi. O'qituvchi zamonaviy metodlar, interfaol yondashuvlar, multimediaviy vositalardan foydalanish holda har bir o'quvchining faoliyatini rag'batlantirishi lozim. Ona tili va o'quv savodxonligi darslarida zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ushbu metodlarni o'zlashtirish va ulardan samarali foydalanish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish – ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy o'rin egallaydi. Ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'rgatish, metodik yondashuvlarni uyg'unlashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuqori natijalarga olib keladi. O'qituvchi har bir bosqichga mos topshiriqlarni puxta rejalashtirishi, individual yondashuv orqali har bir o'quvchining nutqiy rivojlanishiga yordam berishi zarur. Amaliy tajriba shuni ko'rsatdiki, og'zaki va yozma nutqni uyg'un rivojlantirish ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Tavsiyalar: har bir darsda nutqiy faoliyatga oid mashqlarga alohida e'tibor qaratilsin; yozma mashqlarni og'zaki tayyorgarlik asosida tashkil etish samarali bo'ladi; o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga imkon beruvchi topshiriqlar qo'llansin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
2. Piaget, J. The Language and Thought of the Child. Routledge & Kegan Paul, 1959.
3. Halliday, M. A. K. Learning How to Mean: Explorations in the Development of Language. Edward Arnold, 1975.
4. Hymes, D. On Communicative Competence. In: J. B. Pride and J. Holmes (eds), Sociolinguistics. Penguin, 1972.
5. G'ofurov, N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish metodikasi. –T.: O'qituvchi, 2019.
6. Xolboyeva, D. Boshlang'ich sinf darslarida nutqni rivojlantirish usullari. "Boshlang'ich ta'lim muammolari" jurnali, 2021.
7. Abdinazimov, Sh., Qutlimuratov, B., Ismaylova, Z., Salieva, P., Qutlimuratova, G. Ana tili ham o'qiw sawatligi. 1-sinf uchun darslik. –Toshkent, 2021. – 104 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.